

Akademik Mirziyod Mirsaidov 2018 yil mart oyida Toshkent arxitektura qurilish institutida uchrashuv o'tkazdi

Bu uchrashuvda iqtidorli bakalavriat talabalari, magistrilar, doktorantlar, institut rektori R.Xakimov, ilmiy ishlar bo'yicha prorektor R.Nurimbetov, BIQ fakulteti dekani I.Aliyev, ustoz va taniqli professor K.S.Abdurashidov, professorlar Sh.Nizamov, X.Yusupov, P.Mirzayev, t.f.d. A.Baxodirov, kafedralar mudirlari hamda institutning boshqa faol professor-o'qituvchilari qatnashdilar. Uchrashuvni institutning rektori R. Xakimov kirish so'zi bilan ochib, akademik M.Mirsaidovga so'z berdi. M.Mirsaidov o'z so'zida yurtboshimizning fanda erishilgan yutuqlarni amaliyotda tadbiiq qilinishiga katta e'tibor berayotganligiga, yuqori natijalarga erishgan ilmiy xodimlar albatta kelgusida taqdirlanishiga hozirgi kunda Prezidentimiz tomonidan to'la imkoniyat yaratilayotganligini aytib o'tdi. M.Mirsaidov yangi akademiklar saylangandan keyin Prezidentimizning topshiriqlari bilan O'zR FAning yuqori darajada ishlayotgan institutlari bilan, ya'ni Yuqori texnologiyalari markazi, Genomika va bioinformatika instituti, Xalqaro quyosh ilmiy-tadqiqot instituti va Sharqshunoslik institutlarida erishilgan va bajarilayotgan ishlar bilan tanishtirganligi va u yerda yuqori salohiyat bilan ishlayotgan yoshlar va ularning erishayotgan yutuqlari to'g'risida gapirib o'tdi. Xurmatli Prezidentimiz ilmdagi eng katta ilmiy natijalarni ilmiy tadqiqot va oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan yoshlardan kutayotganligini va bu bajarilayotgan ilmiy ishlar innovatsiya g'oyalari, yangi texnologiyalar va ularning tadbiiq'i bilan yakunlanishi haqida ham M.Mirsaidov gapirib o'tdi. Yoshlar va institut xodimlari tomonidan ko'p savollar berildi va bu berilgan barcha savollarga M.Mirsaidov tomonidan to'liq javoblar olindi. M.Mirsaidov kelajakda davlatimiz tomonidan qo'yilayotgan dolzarb muammolarni yechish uchun bu institutda ilmiy maktab tuzishni va bu institut bilan O'zR FA o'rtasidagi integratsiyani rivojlantirishni kelishib olganligini aytib o'tdi. Institutning iqtidorli yoshlari Prezidentimizga ilm-fanga katta e'tibor ajratayotganligi uchun o'z minnatdorchiliklarini bildirishdilar. Bu suhbatlardan keyin yoshlarda ishonch va ko'tarinki ruh paydo bo'lganligini shu institutning rektori R. Xakimov o'z so'zida aytib, Prezidentimiz ishonchining yoshlar tomonidan albatta oqlanishiga ishonch bildirdi. Shu bilan birga, R.Hakimov o'z so'zida institutning ilmiy salohiyatini yanada ko'tarish maqsadida, yosh oliy malakali kadrlarni tayorlash uchun barcha kafedra mudirlari va fan doktorlari tez kunda yo'l haritasini tuzish kerakligini aytdi, bu yo'l haritada iqtidorli yoshlar bilan ishlashni birinchi darajali masala deb kiritish uchun ko'rsatma berdi. Bu fikrni M.Mirsaidov qo'llab-quvvatlab, kelgusida qilinadigan ishlarga omad tilagan holda o'zining qimmatli maslahatlarini berdi. Ushbu uchrashuvni tashkil qilishda faol qatnashgan ilmiy ishlar bo'yicha prorektor, professor R.I.Nurimbetovga va kafedra mudiri, t.f.d. A.A.Bahodirovlarga akademik M. Mirsaidov tomonidan minnatdorchilik bildirildi. Esdalik uchun uchrashuvda qatnashgan barcha yoshlar va insitut xodimlari bilan rasmga tushildi.



O'quv metodika bo'lim v.b boshlig'i Xodjaev Dadaxon axboroti